

MAQOL VA MATALLAR TA'RIFI VA ULARNING AHAMIYATI.

*Shahrisabz davlat pedagogika institut
“ Pedagogika ” fakulteti*

Matematika va Informatika yo 'nalishi

Talaba: Rejabaliyeva Mastura Boymamat qizi

Ilmiy maslahatchi: Abdimurodov Doston Dilmurod o'g'li

abdimurodovdoston@shdpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada. Maqol va matallar xalq og'zaki ijodining janri sifatida bugungi kungacha og'zaki nutq va badiiy adabiyotda o'z faolligini yuqotmagan. Shunday ekan, maqol va matallar har bir xalq ma'naviy qadriyatlarining ajralmas qismidir. Maqol va matallar ming kelib chiqishi o'zining g'oyaviy estetik va bilish ahamiyatini yuqotmagan holda azaldan kelib chiqqan.

Kalit so'zlar: Maqol, matal, xalq og'zaki ijodi, topishmoq, ertak, masal.

Annotation: Proverbs and matals as a genre of folk oral creativity have not spread their activity in oral speech and fiction to this day. Therefore, proverbs and sayings are an integral part of the spiritual values of every nation. Proverbs and sayings thousand origins have long been rooted without infecting its ideological aesthetic and cognitive significance.

Keywords: Proverb, folk oral creativity, riddle, fairy tale, parable.

Аннотация: Пословицы и поговорки как жанр устного народного творчества не утратили своей активности в устной речи и художественной литературе и по сей день. Таким образом, пословицы и поговорки являются неотъемлемой частью духовных ценностей каждого народа. Пословицы и поговорки тысячелетней давности, не теряя своей идеологической эстетической и познавательной значимости.

Ключевые слова: Пословица, поговорка, сказка, загадка, сказка, притча.

Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasziz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar

harakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi ("Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l" va boshqalar). Maqol" atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. Maqol janrining o‘rganilish tarixi Mahmud Koshg‘ariyga borib taqaladi. O‘zining "Devonu lug‘ati turk" asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o‘rin olgan.

Mahmud Koshg‘ariy maqollaridan parcha. «Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur» («Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa qo‘tir bo‘ladi»). Mahmud Koshg‘ariy izohlashicha, «bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi». «Erik erpi yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘» («Tirishqoqning labi yog‘lik, erinchoqning boshi qonlik»). Bu maqol yalqovlikni tashlashga, g‘ayrat bilan ishlashga undab aytiladi.

«Suv ichirmasga sut ber». U senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma‘noda ishlatiladi.

«O‘kuz azaqi bo‘lg‘incha, buzag‘u bashi bo‘lsa yik» («Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq»). U «mustaqillik bo‘ysunishdan yaxshi» degan ma‘noda qo‘llanadi.

«Tavg‘ach xanning to‘rqusi telim, tenglamazib bichmas» («Qoraxitoy xoqonining ipak gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay kesilmaydi»). Bu maqol ishni boshida puxta o‘ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytilgan.

«Uma kelsa, qut kelar» («Mehmon kelsa qut kelar»). Bunda «senga mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut-baxt keladi, qo‘noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar» degan fikr ilgari surilgan.

«Qiz kishi savi yo‘rig‘li bo‘lmas» («Baxil odam obro‘ topmaydi»). Bu maqol odamlarni yaxshi nom chiqarish, saxiy bo‘lish uchun undab aytiladi. Undan tashqari so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e‘tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Maqollar so‘z boshi o‘rnida ishlatilgan hikoyalarni ham ko‘plab uchratamiz. Adib Abdulla Qahhorning "O‘g‘ri" hikoyasida epigrafida sifatida "Otning o‘limi - itning bayrami" maqoli keltirilgan. Bu adibning mahorati bilan bir qatorda, hikoyaning mazmun-mohiyatini bir maqolda ochib bergandek ko‘rinadi.

O‘g‘ri” hikoyasi bosh qahramoni –Qobil bobo. Hikoyaga”Otning o‘limi itning bayrami” maqoli ustalik bilan tanlangan. Qobil boboning bor-yo‘q boyligi hisoblangan ho‘kizi yo‘qolgan. Uning musibatidan amaldorlar foydalanadilar. O‘g‘ri hikoyasida ham qahramonlar kambag‘al, nochor etib tasvirlanadi. Ushbu jumladan Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an‘analari, tarix va madaniyat, ta‘lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to‘la namoyon etuvchi ko‘p qirrali hodisadir. Xalq og‘zaki ijodi tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she‘riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo‘lib,

tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi maydachuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan.

Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Maqollar to'plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo'lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o'zi ichki tasniflashda oz so'zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso'zlik, to'g'ri so'zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokozo mavzularni o'z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu jumladan bir nechta maqollar keltirib o'tilgan.

- . Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.
- . Aytilgan so'z – otilgan o'q.
- . Andishaning oti qo'rqoq.
- . Arpa ekkan arpa o'rar, bug'doy ekkan bug'doy.
- . Arpaning doni bo'lguncha, bug'doyning somoni bo'l.
- . Arqog'ini ko'rib bo'zini ol, onasini ko'rib qizini ol.
- . Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz do'stini..
- . Avval o'yla, keyin so'yla.

Maqollar xalq tajribasidan o'tgan, voqea-hodisalarning so'zdagi o'zgarmas ifodasidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalq og'zaki ijodiga alohida e'tibor qaratdi, bu borada maqollarninig ham chetda qolmaganligini ko'rishimiz mumkin. Hattoki, Birinchi prezident I.A.Karimov "... agarki e'tibor bersa, tilimizda halollik va poklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, "Yo'lini topdimi, qandini ursin", "Uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang" degan maqollar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi" diya takidlaganligini ko'rishimiz mumkin. demak ijobiy ahamiyat kasb etuvchi maqollar ko'pchilikni tashkil etsada, ayrim salbiy holatlarni ko'rsatuvchi maqollarni ham uchratamiz. Maqol - donolik, donishmandlik ramzi. Uni to'g'ri o'qib, to'g'ri anglash va boshqalarga yetkazish alohida layoqatni talab qiladi. Bunda g'o'rlik, mas'ulyatsizlikka erk berib bo'lmaganidek, bilib-bilmay o'zlashtirishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maqollarni nashrga tayyorlab, uni ko'pchilikka manzur etaman, degan odam avval uni mag'zini chaqib ko'rishi kerak. Ushbu jumladan xalq og'zaki ijodi matal.

Matal — muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. M.da o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi

o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim. M. bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. Mas, "Shamol bo‘lmasa, daraxtning shoxi qimirlamas", "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit" va boshqalar. Matal muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora: maqollardan farqli ravishda ibratli maslahat tariqasidagi umumlashtiruvchi ma‘nodan holi bo‘ladi. Masalan, qozonni suvga tashladik, tuyaning dumi yerga tekkanda kabi. Matal – [arabcha مثل] so‘zi, birinchi navbatda, tugal ma‘no ifodalaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z (mas., „qizil qor yog‘ganda“, „tuyaning dumi yerga tekkanda“). ikkinchidan, qissa, masal ma‘nolarini bildiradi. Maqollar va matallar ham Maqollar ba‘zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, xattoki, g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning karakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. So‘z ko‘rki - maqol! Maqollarni hayot qomusi, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiyydir. Ushbu maqolada Amir Temurning Kuch adolatdadir degan hikmatli so‘zi keltirib o‘tilgan.

Kuch — adolatda

Barcha buyuk sarkardalar singari Amir Temur ham o‘z askarlarining mashaqqat va zafarlarini baham ko‘rardi. Ulardan qat’iy intizomni talab qilar, lekin majruhligiga qaramay, ularga bosh bo‘lib jang qilar edi. Hech vaqt o‘z jangchilarini yolg‘iz qoldirmas edi. U lavozimi, boyligi, irqi, dinidan qat’i nazar, barcha uchun adolat bir bo‘lishini nihoyatda sinchkovlik bilan kuzatib borar edi. ...Bunday hukm chiqarish odati, o‘z davri eng yaxshi sarkardasining jasorati va shuhrati singari, uning jangchilar o‘rtasidagi e’tibori va ta’sirining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. (Keren Lyusen). Shu kabi Gulxaniyning ham "Zarbulmasal" asarida ham keltirib o‘tganlar. Zarbulmasal" arabcha zarb va masal so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, „masallar yig‘indisi" ma’nosini beradi. Masal so‘zi o‘tmishda biz hozir qo‘llaydigan maqol ma’nosida ishlatilgan. Zarbulmasal maqol, matal va ramzli hikoyalar asosida yaratilgan ta’limiy hikoyalar. Bunday hikoyalar ko‘pincha pand-nasihat ma’nosida bo‘lib, ma’lum g‘oyani yoritish uchun xizmat qiladi. Zarbulmasalarda majoziy ma’no, kinoya, razm yetakchi badiiy vosita sifatida qo‘llanadi.

«Kalila va Dimna», «Marzbonnoma», «Sindbodnoma», «Qobusnoma», Sa’diy Sheroziyning «Guliston»i, Muhammad Ali Habaliyning «Jome ut-tamsil» asari

zarbulmasalga misol bo‘ladi. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari ushbu janrning mukammal namunalaridan biri hisoblanadi. «Zarbulmasal» — hayvonlar haqidagi qiziqarli voqealarga boy asar. U, aslida, odamlar haqidagi asardir. Adabiyotimiz tarixida „Zarbulmasal“ nomi bilan tarqalgan asarlar juda ko‘p bo‘lgan. U, avvalo, bir tildagi masallarning oddiy to‘plamini anglatgan. Shuningdek, bir tildagi masallarning boshqa tilga qilingan tarjimalari ham „zarbulmasal“ deb nomlangan. Biror masalga tayanib pandnoma yo‘nalishida bitilgan risola ham „zarbulmasal“ atalgan. Gulxaniyning „Zarbulmasal“i esa tamomila original badiiy asar bo‘lib, dunyo adabiyotida o‘xshashi yo‘q hodisadir. Bu janrdagi asarlarda imo-ishora, kinoya asosiy tasvir usuli hisoblanadi. Ijodkor badiiy maqsadini odamlar taqdiri tasviri orqali emas, balki qushlar, jonivorlar vositasida ifodalaydiki, bu asarning ta'sir kuchini oshiradi.

„Zarbulmasal“dagi asosiy qahramonlardan bo‘lmish Boyqushning qanday parranda ekanligi va uning faqat vayronalarni makon tutishi ma'lum. Asarda esa, uning makoni shunday hayrat va muhabbat bilan tasvirlanadiki, beixtiyor o‘quvchining kulgisi keladi. Ma'lumki, boyqush — tungi jonzot. Uning qizi Gunashbonu deb atalgan. Bu — Quyoshxon degani. Boyqushdan quyosh tug‘ilishi mumkinligi tasavvurga sig‘adimi? Buning ustiga, bu qiz shu qadar chiroyliki, olamquyoshi, ya'ni kun uning yuziga qaray olmaydi:

Orazidin shams-u qamardir xijil,
So‘zlaridin shahd-u shakar munfail.
Hosili umri edi ul boyning,
Oti Gunashbonu o‘shal oyning.

Boyqushning kibri, qattiqligi, boshqalarni mensimasligi, o‘zgalarning fikri bilan hisoblashmasligi asar matnida juda qiziqarli yo‘sinda ko‘rsatilgan. Ko‘proq qalin undirish uchun qizining baxtidan kechishga ham tayyorligi uning shaxsigaxos xususiyatlarni yorqin aks ettiradi. Asarda Boyqushga „Anda Ko‘rqush ko‘rdiki, xasis-u haris, agar ming chordevordin bjr chordevor kam bo‘lsa, o‘tuz tishini bir-biridin sindirur“, — degan ta'rif beriladi. Asosiy qahramonlardan biriga Ko‘rqush nazari bilan berilgan baho ko‘p jihatdan muallifning ham qarashini ifoda etadi. Boyqushning: „Farosat oyog‘i oqsoq, tevadek yegani sho‘ra va yantoq, ilgari o‘tgan so‘zning birini ming qilib so‘zlarga toq, oyog‘idin osilgan so‘tqoq qushga o‘xshash ahmoq emasmen“, — degani yoki „Ko‘bga kengash, o‘z bilganingni qil“, — qabilidagi so‘zlari bu obrazning shunchaki yomonlik timsoli emas, balki vaziyat taqozosi bilan mohiyatini o‘zgartirib turishi mumkin bo‘lgan murakkab tabiatli kishi timsoli ekanligini teranroq his etishga olib keladi. Ushbu maqolda Do‘stlik ham maqollari ko‘plab uchraydi. Dunyoda hamma xalqlarning tillarida ham do‘stlik, birodarlik, hamjihatlik va hamkorlik to‘g‘risida juda ko‘p maqollarni uchratamiz. Sharq xalqlarida ham do‘stlik to‘g‘risida ajoyib maqollar yaratilgan. Boshqird maqoli "Xalqlarning do‘stligi - ularning boyligidir" yoki Gruzin maqoli "Daraxt tomiri bilan, odam do‘stlari bilan "

Tatar maqoli "Qushning kuchi qanotida, odamning kuchi do'stlikdadir " degan g'oya ilgari surilganligini ko'ramiz.

Yuqorida keltirilgan maqollarda shakl o'zgargani bilan mazmun saqlangan yani bir xil g'oya va maqsadgaxizmat qilishini takidlash mumkin. O'zbeklarda esa "Do'sting uchun zahar yut" degan maqol bor. Shunday ekan biror millatning maqoli tarjima qilinib boshqa xalqlar ham foydalansa, yoki mazmuni bir-biriga yaqin maqollar, millatlarning do'stlik rishtalarini bog'lashga xizmat qiladi.

Xalqning tilida mavjud bo'lgan har bir so'z tilda ifodalanar ekan, ma'lum xalqning maqollari o'sha xalq tilida keltirilgan so'zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o'ziga xos xususiyatlari bilan, yasalish usuli bilangina ifodalanadi. Shu o'rinda ayrim ingliz tilidan kirib kelgan maqollardan ham kirib kelgan maqollardan misollar keltirib o'tishimiz mumkin. Jumladan: "Ertaga hech qachon kelmaydi", "Yaxshi kitobdan ortiq haqiqiy do'st yo'q" va "It bilan yotgan, burga bilan uyg'onadi" kabi ko'plab maqollarga o'xshash, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lganlari bizda ham ko'plab uchraydi. Xulosa o'rnida takidlash mumkinki, har bir millatning o'ziga xos madaniyat asosida maqollari ham shakllanadi va shu millatning madaniy merosiga aylanadi. Maqollarda asosan o'sha xalqning urf - odatlari, an'analari, quonchi va qayg'usi o'z aksini topadi. Boshqa xalqlarning maqollari tarjima qilinganda, milliylikka alohida e'tibor berilish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "O'zbek xalq maqollari" X.Suvonqulova "Adabiyot uchqunlari", Toshkent. 2014.
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" , Toshkent. "Ma'naviyat" 2008. 21-bet.
3. Jurayeva Bibish MuSinovna. Uzbek Xalq Maqollari Shakllanishining Lingvistik Asoslari Va Pragmatik Xususiyatlari. Avtoreferati. Samarkand - 2019 17-20 Betlar.
4. G'aybulloh Salomov, Tarjima tashvishlari. Toshkent, 1983. 8 bet.
5. К. Жураев "Таржима санъати" Топшкент. 1982 й. 31-б.
6. G'aybulloh Salomov, Tarjima tashvishlari. Toshkent, 1983. 7 bet.